

**O'ZBEKISTON-TURKIYA MUNOSABATLARIDAGI:
ALOQA VA ISTIQBOLLAR**

Yursinboyev Jahongir Mehrojiddin o'g'li

Sobirov Javlonbek

Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixini ko'rishimiz. Hamda tarixiy aloqalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Tarixiy diplomatic aloqalar silsilasiga e'tibor berib siyosiy va iqtisodiy muammolar, hamda ba'zi o'rinlarda siyosiy murosasizliklarni ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda o'zbek va turk xalqi ayni bir millat vakili ekanligini, shu sababdan ham til va din yaqinligi bizning xalqaro munosabatlarda turklar bilan yaqinligimizni ko'rsatadi. Bu maqolada qo'llanilgan ko'plab ma'lumotlar turk va o'zbek noshirlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: I.A.Karimov, T.O'zal, A.Gul, R.T.Erdog'an, Fethulloh Gulesh, SSR.

Tarixiy taraqqiyotning qaysi davriga yuzlanmaylik, deyarli barcha asrlarda davlatlararo o'zaro munosabatlar asosan majburlash, ta'sir o'tkazish hamda kuch ishlatish kabi usul va vositalarga asoslanganini ko'rishimiz mumkin. Bugun, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar o'tgan XX asr ikki qutbli dunyo tartiboti kabi kuchlar muvozanatiga emas, balki umuminsoniy milliy manfaatlariga asoslangan kelishuvlar muvozanatiga asoslanishi lozim. Zero, o'z manfaatlarini boshqa mamlakatlarlar hisobiga qondirishga intilish tuzatib bo'lmas salbiy oqibatlariga olib keladi. XX asr insoniyat misli ko'rilmagan falokatlar solgan ikkita jahon urushlarini boshidan kechirdi va bu urushlar dunyo siyosiy tartibotida ko'plab o'zgarishlarga olib keldi. AQSh va SSSR davlatlari urushdan jiddiy zarar ko'rishiga qaramay, o'zini tez tiklay oldi hamda xalqaro masalalarda yetakchilikni o'z qo'liga olishga bo'lgan intilishi natijada "Sovuq urush" siyosati yuzaga keldi. Bunda dunyo davlatlarini o'z tomoniga og'dirishda G'arb davlatlari ko'proq o'z moddiy ta'sir

kuchiga suyangan bo'lsa, Sovet tuzumi esa kuch ishlatish siyosatiga tayanishi natijasida tarix sahnasida 69 yil yashab, parchalanib ketdi. XX asrning 90 yillariga kelib, nafaqat ittifoqdosh respublikalar, balki ularning tarkibida bo'lgan avtonom hududlarning aksariyati ham birin-ketin o'z mustaqilliklarini qo'lga kirita boshladilar. Ana shunday vaziyatda xalqaro munosabatlar maydonida Sovet tuzumining parchalanishi dunyoning siyosiy tizimi va dunyo xaritasini tubdan o'zgarishiga, tabiiy resurslarni qayta taqsimotiga olib keldi. Mazkur holatda yuzaga kelgan geosiyosiy jarayonlar O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashish jarayonlarini hamda jahon tarixida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi.

2016-yilda O'zbekiston Prezidenti bo'lgan Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvining ilk kunlaridanoq, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash alohida e'tibor qaratgani hamda olib borayotgan tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof bilan qabul qilindi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'on 2018-yilning 29-aprel – 1 may kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a'zo bo'lish va navbatdagi sammitda ishtirok etishni taklif qilgan edi. 2018-yilning 3-sentabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoev birinchi marta O'zbekiston nomidan faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. 2019-yil 15-oktabrdagi Bishkek yig'ilishida O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida ilk bor to'la huquqli a'zo sifatida ishtirok etdi hamda sammitda O'zbekiston tomoni amaliy va konstruktiv muloqotga tayyorligini, har qanday masalani muhokama qilishga ochiqligini namoyish etdi. O'zbekistonning mazkur tashkilot faoliyatida qatnashishi ushbu tuzilmani xalqaro maydonda turk dunyosi manfaatlarini ilgari suradigan to'laqonli tashkilotga aylantiradi. Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochiq va vazmin tashqi siyosati nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi manfaatlariga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligini birinchilardan tan olgan Turkiyaga o'zining bu xalqlar bilan har jihatdan yaqin

munosabatlari bilan faol tashqi siyosatni olib borishiga hamda “Yangi Katta o‘yin” ishtirokchisiga aylanish imkonini berdi. Dastlabki yillarda Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlikni faollashtirishga harakat qildi. Lekin, yo‘l qo‘ygan bir necha xatolari, ya‘ni “katta og‘a” rolini o‘ynashga harakat qilishi mintaqa davlatlarining antipatiyasiga sabab bo‘ldi. Ushbu jarayonlarda Markaziy Osiyo davlatlari Rossiyadek yana bir “katta og‘a” rolini bajaradigan davlatni kelishini istamasligini Turkiya anglab yetdi. Mintaqada o‘z ta‘sir doirasini ushlab turish maqsadida Turkiya “yumshoq kuch” (soft power) siyosatidan faol foydalandi. Ana shu maqsad yo‘lida “TIKA”, “TURKSOY” kabi turk tili va madaniyatini targ‘ib qiluvchi tashkilotlarning mintaqadagi rolini oshirib keldi. Umuman olganda Turkiya Markaziy Osiyoga davlatlari bilan hamkorlikning dastlabki yillarida o‘zaro manfaatli tashqi siyosat olib borib, ushbu mamlakatlarda o‘z diplomatik vakolatxonalarini tashkil etdi, ularga zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlarda ishlayotgan turk diplomatlari Markaziy Osiyolik diplomat kadrlari o‘z faoliyatini yo‘lga ko‘yishlarida yetakchi rolni o‘ynadilar. Turkiyzabon dunyo bilan aloqalarni jadal rivojlantirish Turkiyaning nafaqat tashqi, balki ichki siyosatining ham muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib keldi. Chunki Turkiya Turksoy madaniy hamkorlik dasturi tashabbusi bilan chiqdi va turkiyzabon davlatlar sammitini muntazam ravishda o‘tkazish g‘oyasini ilgari surib keldi. Yevropa Ittifoqiga a‘zolik masalasida Turkiya oldinga siljishlar bo‘lmaganidan so‘ng, mintaqaviy umumiy bozorga ega turk dunyosini shakllantirishga harakat qilmoqda. 2009-yil shakllantirilgan Turk Kengashi (Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi) ham ana shu maqsadlarda xizmat qilishi nazarda tutilgan edi. Shuningdek, keyingi o‘n yil ichida Turkiyaning tashqi siyosatida muayyan geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, “Adolat va taraqqiyot” partiyasi olib borgan tashqi siyosatidan keyin Turkiya dunyoda va Markaziy Osiyo mintaqasida oldingidan farqli ravishda mustaqil geosiyosiy yo‘lni tanlashga harakat qila boshladi hamda o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlashda xalqaro geosiyosiy faktorlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘zining u yoki bu siyosiy maqsadlarini “AQShning intizomli va itoatkor hamkori” sifatida emas, balki yangicha “mustaqil

dunyo davlati” maqomida amalga oshirishga bo‘lgan intilishida ko‘rish mumkin. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Turkiyaning tarixan mushtarak bo‘lgan turkiy tilli xalqlar bilan xususan, O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishiga ahamiyat qaratishi hamda uni mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olishi ikki davlat hamkorligida yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu esa o‘z navbatida, Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarda ishtirokini ta’minlashga hamda siyosiy nufuzini ortishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari diplomatik aloqalarining 1991–2018-yillarda rivojlanishini uch bosqichga bo‘lib tahlil qilish mumkin: 1-bosqich: 1991–1999-yillar, 2-bosqich: 2000–2016-yillar, 3-bosqich: 2016-yildan boshlanadi. O‘zbekiston va Turkiya Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari hamda davlat tashriflari 1991 yilning oxirlaridan boshlandi. Shu yili 16-19-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov (1991-2016) Turkiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Tashrif davomida “O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi aloqalarning asoslari va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma”, “O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasida iqtisodiy va savdo hamkorligi to‘g‘risida bitim”, “Ahdlashuv protokoli” kabi xujjatlarni imzolanishi o‘zaro hamkorlikda muhim qadam bo‘ldi. Binobarin, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining me’yoriy huquqiy bazasini shakllantirish, Turkiya Respublikasi bilan hamkorlik qilish ishlari tashqi siyosiy faoliyatga doir normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilish yo‘li bilan amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bunday o‘zaro diplomatik aloqalarning o‘rnatilishida davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari chog‘ida tuziladigan shartnomalar, bitimlar, memorandumlar, shuningdek, vazirliklar, hukumatlararo komissiyalarining tashqi siyosiy faoliyat tamoyillarini, shartnoma va bitimlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan institutsion aloqalar jarayonlarida qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta bo‘ldi. Tashrif davomida Prezident I.Karimov Turkiyaning xalqaro jamoatchilik sohasidagi yondashuvini yuqori baholab, “SSSR parchalanib ketgach hozirgi qiyin vaziyatni hisobga olgan holda, O‘zbekiston samarali rivojlanish yo‘lini tanlashga majbur.

Turkiya tomonidan qo‘llaniladigan iqtisodiy modeli bizning mamlakatimizga

ham tegishli, chunki bizning xalqlarimizni an'anaviy do'stlik rishtalari bilan bog'lab turadi." Umuman olganda, ushbu tashrifdan so'ng barcha jarayonlar ikki davlatni asosiy sheriklarga aylanganini ko'rsatib turar edi. Turkiya Prezidenti Turgut O'zal hattoki, Sovet tuzumi hukmronligi davrida ham Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama aloqalar qilishni yoqlar edi. Prezident I.Karimovning 1991-yilda O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilishi, Turkiyaning O'zbekiston mustaqilligini tan olishi va qo'llab-quvvatlashi O'zbekiston rahbarining xalqaro doiradagi obro'sini oshirdi. Ushbu tashrif ikki tomonlama aloqalarni har jihatdan rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Shuni aytish o'rinliki, O'zbekistonning Turkiya bilan tobora rivojlanib borayotgan aloqasini g'ayritabiiy siyosiy pozitsiya deb o'ylagan ayrim O'rta Osiyo mamlakatlari O'zbekistonni Turkiya modeliga amal qilishini taxmin qildilar. Shu bilan birga, Prezident I.Karimov bir qator aniq ogohlantiruvchi so'zlarni aytib, avval O'zbekistonning o'z modeli va undan keyin Turkiyaning modeliga amal qilishini alohida ta'kidladi: "Men Turkiyaning bir vaqtning o'zida o'z milliy urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish yo'lidagi harakatlarini hurmat qilaman. Shuning uchun men turk modeli haqida gapirganda, uni namuna sifatida tushunaman. Ammo O'zbekistonning o'z tanlagan yo'li bor". Shubhasiz, Turkiya sherikchilikda o'zaro teng va O'zbekistondan ustun bo'lmasligi kerak edi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston iqtisodiyoti o'zgacha bo'lishi kerakligini anglatardi. 1992-yil 28-aprelda Turkiya Bosh vaziri S.Demirel (1991-1993)ning O'zbekistonga kelishi ikki davlat o'rtasida munosabatlarning rivojlanishida katta voqea bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi" va Turkiyaning "Tashqi iqtisodiy hamkorlik kengashi" o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida imzolangan bitim ikki davlat siyosiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Mazkur yilning 28-aprelida Toshkent shahrida Turkiya Respublikasining elchixonasi ochildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi 1993-yil yanvardan o'z faoliyatini boshladi. Ikki davlat elchixonalarining ochilishi o'zaro siyosiy-diplomatik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni jadallashtirishda muhim qadam bo'ldi. 1992-yil 29-iyun – 1 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov Turkiyaga tashrif buyurdi. Uchrashuvda O'zbekiston rahbari dunyo

davlatlar ichida Turkiya O'zbekiston uchun alohida o'rin tutishi va uning madaniyati va iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori darajada ekanligini haqidagi O'zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan ijobiy fikr-mulohalari Prezident I.Karimovning siyosiy rolini kuchaytirishda muhim o'rin tutdi. Turkiya Prezidenti T.O'zal 1992-yil noyabr oyida "Turkiy tilda so'zlashuvchi" mamlakatlarning birinchi sammitida Turkiya va Markaziy Osiyo o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatishga chaqirdi va bunda u yuqori darajadagi manfaatli siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyani o'z ichiga olgan ulkan qo'shma loyihalarni amalga oshirish va ikkala mintaqani ajratib turadigan devorlarning buzilishi haqidagi qarashlarni ilgari surdi. U o'z nutqining oxirida "agar biz bu tarixiy imkoniyatlardan iloji boricha samarali tarzda foydalana olsak, XXI asr turklarning asri bo'ladi" deb alohida ta'kidladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga borib dunyodagi turkiy xalqlar nufuzi 227.2 milliondan oshishi tahmin qilinmoqda. Ularni bog'lab turuvchi yagona unsur bu – turkiy til hisoblanadi. Ana shu omil Turkiya Prezidenti Turgut O'zalning tashqi siyosatda ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida turkiy tilli davlatlar alyansini tuzishida namoyon bo'ldi. Prezident T.O'zal tomonidan aytilgan ushbu fikrlar O'zbekiston rahbarining mamlakat mustaqilligini mustahkamlash yo'lida olib borayotgan xarakteriga zid qarashlarini bildirgan edi. Aloqalar shunga qaramay rivojlanib bordi va ikkala tomon ham o'z obro'sini oshirishda davom etdi.

Turkiya Prezidenti S.Demirel 1999-yil mart oyida O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashrifdan asosiy maqsad savdo-sotiqni rivojlantirish va Turkiyaning Samarqand shahriga kiritgan sarmoyalarini nazorat qilish mo'ljallangan edi. Biroq, uchrashuvda Prezident I.Karimovning siyosiy hokimiyatiga qilingan qurolli tajavvuzga doir masalalar ham muhokama qilindi. Shunga qaramasdan O'zbekistonda siyosiy repressiyalar to'liqini davom etdi. O'zbekiston bilan bog'liq ushbu murakkab ziddiyatlarni oldini olish maqsadida Turkiyada yashayotgan gumonlanuvchilarni ekstraditsiya qilishda BMTning Inson huquqlari kengashi tomonidan ish qo'zg'atildi. 1999-yil 16-fevraldagi portlashlarga aloqador bo'lganlarning ba'zilar sud jarayonlarida Turkiya sobiq bosh vaziri ularga moliyaviy yordam berganini tan oldi. Bunga javoban, O'zbekiston Turkiya bilan

vizasiz rejimni bekor qildi va mamlakatdagi faoliyat ko'rsatayotgan turk maktablarini yopdi. Biroq, Turkiya bilan munosabatlar salbiy ko'rinish olgan bir paytda 2000-yilda yangi saylangan Turkiya Prezidenti Ahmet Sezer O'zbekiston hukumati bilan hamkorlik qilish va yaqinlashishga intildi. 2000-yil 16-17-oktyabr kunlari O'zbekistondagi rasmiy tashrifi va Turkiya Prezidenti A.Sezer O'zbekistonning o'zaro xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ikki davlat aloqalarining yangi bosqichga o'tayotganini e'tirof etsada, ammo, Prezident I.Karimov 2001-yil aprel oyida Anqarada bo'lib o'tadigan Turkiya sammitida qatnashishdan bosh tortdi. Ushbu holatda Turkiya etakchiligida o'tkaziladigan barcha sammitlarni O'zbekiston tomoni qo'llab-quvvatlamasligini anglatardi. 2002-yil noyabr oyida Turkiyadagi "Adolat va taraqqiyot" partiyasi parlament saylovlarida g'olib chiqdi va yangi hukumat tuzildi. Rejep Tayyip Erdog'an Turkiya Bosh vaziri bo'ldi va oldingi partiyaning g'oya hamda qarashlarini tanqid qildi. Bu bilan kelgusida u olib boradigan Turkiyaning ichki va tashqi siyosati butunlay o'zgacha bo'lishini ko'rsatar edi. 2003-yil oktyabr oyida O'zbekiston tashqi ishlar vaziri A.Komilov Turkiyaga tashrif buyurdi va bosh vazir R.Erdog'an bilan uchrashdi. Uchrashuvda asosiy masalalar qatorida davlatlar o'rtasida xavfsizlik va barqaror vaziyatni ta'minlashga e'tibor qaratdilar. Shu bilan birga o'zaro uchrashuv jarayonida Prezident I.Karimovning tashqi siyosiy qarashlariga zid kelmaydigan fikr mulohazalar bildirildi hamda O'zbekiston Mudofaa vazirligiga Turkiya tomonidan bir qator harbiy texnikalar sovg'a qilindi. Ushbu tashrif o'zaro ikki davlat munosabatlarini jonlanishida o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Turkiya Bosh vaziri R.Erdog'an 2003-yil 19-dekabrda O'zbekistonga tashrifi vaqtida ta'kidlagan, "Biz O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan birdamligini qadrlaymiz. Terrorizmga qarshi kurashda hamda xavfsizlik sohalarida biz hamkorlikni rivojlantirishga qaror qildik". Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha paytda O'zbekiston terrorizmga qarshi global kurashning markazida edi. O'zaro munosabatlardagi iliqlik uzoqqa cho'zilmadi, 2004-yil mart oyida Toshkent shahri va 2005-yilning may oyidagi Andijon voqealari Turkiya bilan siyosiy munozaralarga sabab bo'ldi. Turkiya Prezidenti Abdulloh Gulga Andijon

voqealariga “biz buni xavfsizlik deb o‘ylaymiz. O‘zbekiston hukumatining aqlidrok bilan munosabat bildirayotgani va tinch aholiga nisbatan mintaqada qon to‘kilishini oldini olishga chaqiramiz. Bu vaziyatda Turkiya xukumati o‘zining siyosiy qarashlarini namoyon etdi. Turkiyaning O‘zbekiston bilan strategik muvozanat o‘rnatishi murakkab ekanligi 1999-yil 16-fevral hodisasi va Andijon voqealari aynan Markaziy Osiyoda keyingi o‘n yilliklarda qaytadan avjiga chiqqan geosiyosiy raqobatning oqibati ekanligini ko‘rsatdi. Bu voqealar senariylari davomida bosimning barcha usullari qo‘llanildi: Bi-Bi-Si, “Ozodlik” radiosi, “Nyu-York Tayms” kabi gazetalar singari turli OAV orqali axborot xuruji, shuningdek, BMT, Inson huquqlarini himoya qilish, Xalqaro Amnistiya qo‘mitasi kabi xalqaro tashkilotlar orqali siyosiy bosimlar o‘tkazildi. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov Andijon voqealari buyurtmachilari uzoq xorijda ekanligini, umuman, bunday voqealar yoqilg‘i energetika zaxiralari mavjud ulkan mintaqalar atrofida tashqi ta’sir ostida ro‘y berishini asoslab ko‘rsatganda strategik muvozanat masalasining dolzarbligi yanada oydinlashdi. Ikki davlat rahbarlarining bir-birini ramziy qo‘llab-quvvatlashiga qaramay keyingi yillarda ham bu mavjud ziddiyatlar to‘la barham topmadi. Ishonchsizlik jamoatchilik orasida tobora kuchayib borar edi va buni O‘zbekistonning Fetulloh Gulen rahnamoligidagi “Nurchilar” harakatiga nisbatan kuchayib borayotgan repressiyasida ham aniq ko‘rsatib berdi. Fetulloh Gulen harakatiga qarshi fitnalar ichki boshqaruvda o‘zaro ziddiyatga olib keldi hamda Turkiyaning ichki siyosatiga ham ta’sir qildi. Natijada, Turkiyada parlament a’zolari ichida ziddiyatli vaziyatlar kelib chiqdi. Turkiya Prezidenti Abdulloh Gulning Andijon voqealari haqidagi bayonotiga qarshi chiqib, “Adolat va taraqqiyot” partiyasi a’zolari davlat rahbaridan BMT Bosh Assambleyasida Andijon voqealari yuzasidan O‘zbekiston hukumatini nomutanosib kuch ishlatganlikda ayblovchi rezolyusiyani ma’qullab ovoz berishni yoqladilar. Shundan so‘ng ikki davlat jamoatchiligi doirasidagi munozaralar to‘xtab qolishga olib keldi. Bundan tashqari, O‘zbekiston 2009-yilda tashkil etilgan Turkiya etakchiligidagi Turkiy tilli davlatlarning hamkorlik kengashiga a’zo bo‘lish taklifini rad etdi. Darhaqiqat, bugungi kungacha F.Gulen harakatining maqsadlari Turkiya siyosatida, xususan,

“Adolat va taraqqiyot” partiyasi hokimiyat tepasiga kelganidan keyin ham kelishuvdan uzoq bo‘ldi. F.Gulening faoliyati Turkiyada ham taqib ostiga olinib, Adliya tashkilotlari tomonidan sud qilinib, 1999-yilda mamlakatdan chiqarib yuborildi va AQShdan siyosiy boshpana topdi. Shunday qilib, qat’iy iroda va yangilangan siyosiy boshqaruv hamda islom omili o‘rtasidagi munosabatlardan Turkiyaning o‘ziga xos tashqi siyosiy qarashlari o‘zgarganini ko‘rish mumkin edi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston xukumati tomonidan davlat xavfsizligini o‘ylagan holda kelib chiqishi turk bo‘lgan fuqarolarga va diniy-siyosiy tashkilot a‘zolariga nisbatan choralar ko‘rila boshlandi. Ushbu vaziyatni muhokama qilish uchun Turkiya Prezidenti Abdulloh Gul tomonidan Turkiya sammitida ishtirok etishini so‘rab, Prezident I.Karimovga 2010-yil avgust oyida murojaat qildi, lekin O‘zbekiston xukumati yana bir bor qatnashishdan bosh tortdi. Ushbu voqealardan keyin O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik saqlab qolingan bo‘lsada, o‘zaro diplomatik aloqalar deyarli to‘xtab qoldi. Biroq, Turkiya iqtisodiy aloqalarda ham dunyoviy davlat qurish yo‘lidan borgan O‘zbekiston uchun, o‘zida sekulyar demokratiyani muvaffaqiyatli joriy qilgan, shuningdek, ko‘ppartiyaviylik hamda g‘arblashtirish borasidagi yutuqlari bilan 1991-2002-yillarda pan-turkizm g‘oyalari keng rivojlantirib, O‘rta Osiyo davlatlari uchun “turk modeli” juda ham jozibador ko‘ringan edi. Shu sababdan ham o‘tgan asrning 90-yillarida mintaqa mamlakatlari rahbarlari rivojlanishning turk modelini namuna sifatida qabul qildilar. Afsuski, Turkiyaning umumiy turk siyosiy va iqtisodiy hamjamiyatini yaratish borasida o‘z salohiyatiga ortiqcha baho bergani tez orada ayon bo‘lib qoldi, uning bu sohada etarli resurslarga ega emasligi oydinlashdi, yosh turkiy tilli davlatlarga va’da qilingan iqtisodiy yordami o‘z vaqtida bera olmadi. Natijada, turk modeli mintaqa davlatlari uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Mintaqada turk modelini amalga oshirish yo‘lidagi navbatdagi muvaffaqiyatsizliklar 1996-yil hokimiyatga N.Erbakan, undan so‘ng esa 2002-yilda R.T. Erdog‘on boshchiligidagi “Adolat va taraqqiyot” partiyasini kelishi bilan boshlandi. Bu vaqtga kelib mintaqaning barcha davlatlari dunyoviy taraqqiyot yo‘lini qat’iy tanlab bo‘lgan edi. Turkiya hukumatining bosqichma-bosqich islomlashtirishga tomon og‘ib borishi esa, turk

dunyoviy modelining nufuziga shubha uyg'otdi. Bu holat o'z navbatida, Turkiya ham Markaziy Osiyo yo'nalishidagi siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini angladi. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga o'tganligi Turkiyaning O'zbekiston bo'yicha tashqi siyosiy yondashuv va qarashlarini sezilarli darajada o'zgartirishga majbur qildi. Turkiya uchun ustuvor hisoblangan Evropa davlatlari bilan munosabatlari xususan, uning Evropa Ittifoqiga kirish imkoniyati pasayishi ortidan Yevropa energiya transporti etakchisiga aylanishiga bo'lgan harakatlariga to'siqlarni uchrashi va mamlakatda ichki muammolar siyosiy transformasiyalarni keltirib chiqardi. Bu esa islomiy ruhidagi kayfiyatni o'sishiga olib keldi. Turkiya Prezidenti Rejep Erdog'an rahbarligida millatchilik mafkurasi, yevropalashuv yo'nalishini saqlagan holda, islom liberalizmi asosida Turkiyaning ichki hamda tashqi siyosat konsepsiyasini ishlab chiqildi. Bu konsepsiya bevosita Ahmed Dovutog'lu tomonidan tavsiya qilingan sobiq Usmoniylar davlati hududlarida joylashgan davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash va "qo'shnilar bilan nol muammolar" siyosatini amalga oshirishni nazarda tutar edi. Shunga ko'ra, o'tgan yillarda Turkiya yagona millat, davlat tamoyili qoidalariga ko'ra, mintaqadagi o'rab turgan davlatlar bilan munosabatlarini yo'lga qo'yish va muammolarni hal qilishda o'zini chetda ushlab turdi. Bir paytlar Usmoniylar davlati tarkibida bo'lgan hududlarda Turkiya o'zining geomadaniy va geosiyosiy ma'suliyatini unutib qo'ydi. Agar Turkiya o'zining tarixiy va merosiy an'alariga qaytadigan bo'lsa, o'zi uchun yangi imkoniyatlarni ochadi hamda tashqi siyosatni konstruktiv olib borilishiga erishadi. A.Dovutog'luning konsepsiyasi Turkiya hukumatidagi partiya vakillarida ijobiy taassurot uyg'otdi. Bu esa o'z navbatida uning 2009-yilda tashqi ishlar vaziri darajasiga chiqishiga olib keldi. O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlari va ikki davlat hukumat a'zolarining xalqaro anjumanlar doiradagi uchrashuvlari tufayli ikki davlat munosabatlarini qayta tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. 2012-yilda BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishida Turkiya tashqi ishlar vaziri Ahmet Davuto'g'lu (2009-2014) O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov bilan uchrashuvda 2013-2015-yillarda ikki davlat hamkorlik rejasini tayyorladilar. Ushbu uchrashuv ikki davlat rahbarlarining

uchrashuvi uchun zamin yaratdi. Mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni qayta tiklash yo'lidagi oliy darajagi uchrashuv 2014-yil 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Sochi (Rossiya) shahrida XXII qishki Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimiga safari doirasida Turkiya Prezidenti Rejep Erdog'an bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda, ikki davlat prezidentlarining bir yilda bir marta Tashqi ishlar vazirligi darajasida hamda davlat rahbarlari darajasida uchrashuvlar o'tkazib turishga kelishilgani o'zaro munosabatlarda muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov har bir davlatning rahbarlari bilan muzokara olib borar ekan, asosiy e'tiborni "teng huquqlilik, o'zaro teng manfaatlar" asosida olib borishga qaratdi. Ekspertlarning fikricha, Sochidagi uchrashuvda Prezident Islom Karimov bu prinsipni yana bir karra Turkiya hukumati rahbariga etkaza oldi. Turkiya Tashqi ishlar vazirligi ushbu safar munosabati bilan tarqatgan matbuot xabarida "Muloqotlar chog'ida ikki davlat o'rtasida teng huquqlilik hamda teng manfaatli hamkorlik asosida munosabatlarni yanada rivojlantirish, ikki davlatni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalar muhokama qilinadi" degan fikr-mulohazalarga alohida urg'u berdi.

Birinchidan, Turkiya O'zbekiston mustaqilligini tan olgan ilk davlatlardan biri sifatida o'zaro amaliy va konstruktiv diplomatik muloqotlarni yo'lga qo'ydi. Ikki davlat Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, yuqori darajadagi siyosiy muloqotlari natijasida jamiyat hayotining barcha sohalari bo'yicha bitim va shartnomalar imzolandi. Ikki davlat hamkorlik aloqalarini tadqiq etish natijasida hamkorlik jarayonlari bosqichlarga ajratib tahlil etildi. Davlatlar o'rtasida hamkorlikning turli yillarida siyosiy kelishmovchilik va ziddiyatlar yuzaga kelganligi va buning o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjudligi aniqlandi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov mamlakat tashqi siyosatini olib borishda asosan milliy manfaatlariga asoslanib, dunyo hamjamiyati bilan o'zaro tenglikni saqlash hamda kuchli davlatlar siyosiy ta'sirini oldini olgan holda davlat xavfsizligi va suverenitetini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Shuningdek, Turkiya xukumatidagi siyosiy qarashlari ta'siri hamda ularning diniy-siyosiy terrorchilik

tashkilotlarga aloqadorligi kabi sabablar tufayli ikki davlat munosabatlari yomonlashdi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik munosabatlarida chekinish ko'zga tashlanadi. Savdo, tranzit va boshqa iqtisodiy munosabatlar saqlangan bo'lsa-da, ammo boshqa sohalardagi aloqalar pasayganligi hamda tizimli bo'lmaganligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganidan so'ng Turkiya Respublikasi bilan o'zaro teng huquqli manfaatli hamkorlik aloqalarini qayta tiklash va uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha olib borgan tashqi siyosati muhim ahamiyatga ega bo'ldi va davlat rahbarlari o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar, amalga oshirilgan davlat tashriflari natijasida jamiyat hayotining barcha sohalari bo'yicha aniq strategik maqsadlar asosida bitim va shartnomalar imzolandi. So'ngi yillarda ikki mamlakat munosabatlari yangi "Strategik hamkorlik" darajasiga ko'tarilganligi hamda davlat rahbarlari olib borayotgan tashqi siyosatlaridagi yondashuvlarining o'xshashligi o'zaro manfaatli hamkorlikning yanada rivojlanishida muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston–Turkiya munosabatlarida dastlab iqtisodiy hamkorlik muhim yo'nalish sifatida e'tirof etildi. Ikki davlat hamkorligida savdosotiq, vositachilik qilish, qo'shma banklar tashkil etish, qo'shma korxonalarni ishga tushirish va ularni texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarini olib borildi. Ayniqsa, asosiy e'tibor engil sanoat, xususan, to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishga qaratildi. Respublikaning deyarli har bir viloyatida O'zbekiston–Turkiya qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatdi. Ammo ba'zi qo'shma korxonalarda xorijiy texnologiyalarni tezda ishdan chiqib qolish holatlari ham kuzatildi. Qolaversa, ayrim ishbilarmonlar ikki davlat o'rtasidagi bitim shartlariga amal qilmadi. Ammo bu kabi holatlarga qaramay, O'zbekiston–Turkiya iqtisodiy hamkorligi mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarining muvaffaqiyatida muayyan darajada rol o'ynadi. Bu hamkorlik O'zbekistonning jahon integratsiyasiga qo'shilishi, engil sanoatni rivojlantirish, Turkiya ko'magi bilan O'zbekiston avtobuslar va yuk avtomobillari ishlab chiqaruvchi davlatga

aylanishida va eksport hajmini ortishiga xizmat qildi.

To'rtinchidan, O'zbekiston va Turkiya bank-savdo sohasiga alohida ahamiyat qaratilib, bank va savdo tizimi yildan yilga shakllanib bordi. Qisqa fursat ichida O'zbekistonda Turkiya bilan hamkorlikdagi bir qator qo'shma banklar tashkil etildi. O'zbekiston va Turkiya savdo munosabatlarining huquqiy asoslari shakllantirildi. Ikki davlat tadbirkorlari o'zaro hamkorlikka katta qiziqish bilan qaradi va ular xalqaro savdo yarmarkalarida ishtirok etib, o'zaro tajriba almashib turdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida xalqaro havo yo'llarining ochilishi va telekommunikasiya qulayliklari natijasida ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari hajmining ortishiga hamda eksport hamda import miqdorining ko'payishiga xizmat qildi.

Beshinchidan, Bugungi kunda jahonda iqtisodiyotning eng serdaromad yo'nalishlaridan biriga aylanayotgan turizm sohasini rivojlantirishda O'zbekiston va Turkiya aloqalari jadal yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishda Turkiyaning "mo'risiz sanoat" tajribasi hamda sayyohlik firma va kompaniyalari muhim rol o'ynamoqda. Bunda ayniqsa, turkiyalik ishbilarmonlar va mutaxassislar tomonidan sayyohlikni yangi yo'nalishlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirayotgan loyihalari o'z navbatida O'zbekistonning jahon turizm bozoriga integrasiyalashuviga hamda sayyohlar sonini ortishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, O'zbekiston–Turkiya aloqalarida muhim yo'nalishlaridan biri bu ta'lim tizimiga qaratildi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Turkiyaning "Silm" shirkati o'rtasida 1992-2000-yillarga mo'ljallangan ta'lim sohasidagi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. O'zbekistonning viloyat markazlarida o'zbek-turk liseylari ochildi. Lisey o'quvchilari respublika va xalqaro miqyosida uyushtirilgan fan olimpiadalarida ijobiy natijalarga erishdi. Ammo liseylarda o'qituvchilarga viza olish, aviachiptalar, tibbiy xizmat ko'rsatish, oylik maoshlarni to'lashda konvertasiya bilan bog'liq muammolar hamda "Silm" shirkatlarining diniy-siyosiy oqimlar ta'sirida ekanligi aniqlangandan so'ng ularning faoliyati to'xtatildi. Shuningdek, ikki mamlakat hamkorligining har bir bosqichlarida fan olimlari va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan fanning turli

yoʻnalishlari boʻyicha ilmiy tadqiqotlar, xalqaro anjumanlar oʻtkazilib, koʻplab oʻzaro qoʻshma loyihalar amalga oshirib kelindi.

Yettinchidan, Oʻzbekiston bilan Turkiya oʻrtasida madaniyat va sanʼat sohalarida oʻzaro aloqalar yuqori darajada rivojlanib, asosan madaniyat va sanʼat kunlari, milliy bayram tadbirlari oʻtkazish hamda Oʻzbekiston – Turkiya doʻstlik jamiyati, oʻzbek-turk milliy madaniy markazlari tomonidan tashkil etilayotgan xalqaro konferensiyalar, festivallar, tanlovlar va xalqaro koʻrgazmalarni tashkil etish odat tusiga kirib bordi. Shuningdek, musiqa, tasviriy sanʼat, xalq ogʻzaki ijodi, teatr va kino sohalarida ikki davlat vakillari hamkorlik qilib kelmoqda. Samarqandda oʻtkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida turkiyalik sanʼatkorlar doimiy ishtirokchiga aylandi. Sanʼat ustalari xalqaro anjumanlarda uchrashib, oʻzaro muloqat qilib keldi. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, Turkiyaning taʼlim, fan va texnika, innovasiyalar, sogʻliqni saqlash hamda sayyohlik xizmatlarini koʻrsatish borasidagi ulkan tajribasidan foydalanish va hamkorlikni yoʻlga qoʻyish Oʻzbekistonning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, deb oʻylayman. Shu bilan birga, kelajakdagi oʻzaro aloqalarning mustahkamlashda ayrim jihatlarni eʼtibordan qochirish kerak emas. Ikki davlat hamkorligining oʻtmishdagi xatolaridan toʻgʻri xulosa chiqarish va ularni boshqa takrorlamaslik, eski tizimning baʼzi xatolarini esa mumkin qadar tezroq va adolatli hal etish hamda aloqalarning kelajagiga raxna solishiga yoʻl qoʻymaslik lozim. Shuningdek, Turkiya bilan oʻzaro hamkorlik aloqalarini mafkuraviy asoslarga koʻra emas, iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Abdulaziz Komilov Turkiya tashqi ishlar vaziri bilan uchrashdi. <http://vatandosh.uz/2014/05/erdogan-5> 27.05.2014.
2. Abdulla Aripov Boku–Tbilisi–Kars temir yoʻli ochilishida ishtirok etadi. <https://azon.uz/content/views/abdulla-aripov-ozarbayjon-respublikas> 30.10.2017.
3. В Турции умер бывший глава исламистского правительства Неджеметтин Эрбакан. <https://www.newsru.co.il/world/27feb2011/e> 27.02.2011.

4. Gülnur A. Turkey's Security Challenges and NATO. /Carnegie Endowment for International Peace. 2012. <https://carnegieendowment.org/files/Ay>. 02.12.2019.
5. Çavuş.T. Dış Politikada yumuşak güç kavramı ve Türkiye'nin yumuşak güç kullanımı. <http://iibfdergisi.ksu.edu.tr/tr/download/article-file/107654>.
6. Ikromov Sh. Rivojlanishning turk modeli yoxud Markaziy Osiyoda Turkiya, Eron va Isroil raqobati. <https://uzanalytics.com/xalqaro munosabat/8071/> 26.08.2020.
7. Kastamonuda 9-Turk dunyosi adabiy nashlari kongressi bo'lib o'tdi. <https://ziyouz.uz/yangiliklar /kastamonuda-9-turk-dunyosi19.04.2018>.
8. Салапагаров А. Сколко всего в мире нас-нас тюрков? www.turkishnews.com/ru/content/2013/04/26/Skolko-vsego-v. 26.04.2013.
9. Silk Road Fund is officially established in Beijing. <http://www.silkroadfund.com.cn/enweb/23773/in> 29.12 .2014.
10. Türkiye-Özbekistan İkili İşbirliği: Güçlenen İlişkilerde Önemli Adım. <https://ankasam.org/turkiye-ozbekistan-ikili-isbirligi-guclenen> 24.10.2017.
11. Taşkömür F. How did Turkey-Uzbek relations improve after two decades of stagnation? <https://www.trtworld.com/turkey/how-did-turkey-uzb> 26.10.2017.
12. Turkiyaning 4 ta universiteti va Mir Arab oliy madrasasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi <https://vaqf.uz/uz/lists/view/> 13.06.2018.
13. “Uzbekistan Is Turkey's New Strategic Partner–Adviser,” <https://ahvalnews.com/turkey-uzbekistan> 2.05.2018.
14. Uzbek foreign minister in Ankara to discuss ties' Hurriyet, 28 October 2003, available via <http://www.hurriyetaidailynews.com/>, accessed September 2012. -ikki 21.10.2017.
15. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Tarix fanlari bo'yicha fals dokt (PhD) diss... avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2017. –
16. Bekmurotov X.I. O'zbekistonning Turkiya bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi (1991-2000 yy). t.f.n diss... – Toshkent: 2001.